

SANOAT ISHLAB CHIQUARISH TARMOQLARI

Qodirov Sayilxon Shokir o'g'li*Buxoro Davlat Pedagogika instituti**Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari ta'lim yo'nalishi IGIQ-22 guruh talabasi*

Annotatsiya: mazkur maqolada sanoat ishlab chiqarish tarmoqlar Ushbu tarmoqlar turli xil mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, ular o'zaro bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari energiya, kimyo, og'ir va engil sanoat, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tarmoqlar innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlarini yaratish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kallit so'zlar: Sanoat, yoqilg'i sanoati, elektr-energetika, qora metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va neftni qayta ishlash sanoati.

Jahon xo'jaligida sanoat yetakchi rol o'ynaydi. Sanoat mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini, ishlab chiqarishning texnik darajasini, tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish ko'lamini belgilaydi. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning barcha bosh yo'nalishlari, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning eng muhim iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarini hal etish sanoat bilan bog'liqdir. Sanoat iqtisodiy rayon hosil qilishdagi ahamiyatiga ko'ra xo'jalikning boshqa har qanday tarmog'idan ustun turadi. U mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni shakllantirish orqali ko'pdan-ko'p yangidan-yangi shaharlar markazlarining, aloqa yo'llarining vujudga kelishiga, xomashyo, yonilg'i va energiya yangidan-yangi manbalarini o'zlashtirishga sabab bo'ladi. ...

Sanoat o'zi nima va u nima uchun kerak? Sanoat - bu har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismi hisoblanadi. Brokgauz va Efronning «ensiklopedik lug'aviy ma'nosidan» kelib chiqadigan bo'lsak, «sanoat» tushunchasi kengroq ma'noda «insonning hunarmandchilikka yo'naldirilgan, moddiy buyumlarni yaratish, o'zgartirish yoki ko'chirishga qaratilgan xo'jalik faqiyati»ni, tor ma'noda esa «biron-bir xomashyoni iste'mol uchun yaroqli narsaga qayta ishlashni, aylantirishni» anglatad

Sanoat - mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy asosi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. Sanoat, ayniqsa, og'ir sanoat - butun ijtimoiy ishlab chiqarishni industriyalashtirish muammolarini hal etish kalitidir. Sanoat, qisqacha aytganda, asosan tabiatdan olingan xomashyoga qayta ishlov berish natijasida o'zining dastlabki holatini o'zgartirgan mahsulot turlarini o'z ichiga oladi.

Dastlabki sanoat tarmoqlari bevosita tabiat va uning resurslari bilan bog'liq bo'lgan. Iqtisodiyot uchun rivojlangan sanoat tarmog'i katta ahamiyatga ega. Sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari qanchalik jadal bo'lsa, iqtisodiyotda o'sish shunchalik yuqori bo'ladi, mamlakat xilma xil va murakkab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga qodir bo'lsa, uning farovonlik darajasi va iqtisodiyotining istiqboldagi rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Agarda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmog'i innovatsiyalarning joriy etilishini, mehnat unumdorligi va diversifikatsiyalangan eksportning oshishini ta'minlab bersa, rivojlanayotgan mamlakatlarda - turmush darajasining oshishiga yo'l ochib berilishini ta'minlaydi. Bugungi kunda jahon sanoatining hozirgi holati fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, hududiy mehnat taqsimotining mavjudligi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning natijasidir.

Mamlakatimizda ham hozirgi vaqtda ko'p tomonlama tuzilgan va uzoq muddatga mo'ljallanib, muayyan katta maqsadga yo'naltirilgan, jumladan, energetika, yonilg'i va xomashyo, mashinasozlik, keng iste'mol mollari sohalaridagi dasturlar amalga oshirilmoqda. Sanoat tarkibidagi ayrim tarmoqlarning rivojlanish darajasi har xil. Bu hoi ularning ilgarigi shakllanish xususiyatlari, fan-texnika taraqqiyoti talablari va boshqa xil sabablar bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda quyidagi yo'nalishlarning barqarorligi e'tiborni jalb qiladi:

- 1) og'ir industriyaning birinchi o'rinda rivojlantirilishi;
- 2) fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlarning jadal o'sishi;
- 3) sanoatning barcha tarmoqlarida iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishning

[2,7/10]

Yoqilg'i sanoati tog'-kon yoki qazib oluvchi sanoati toifasiga kiradi va yoqilg'i turlari, qazilma boyliklarning joylanishi tabiiy, geoximik qonuniyatlarga asoslanadi. Sababi-ko'mir, neft, gaz, yonuvchi slanets, torf kabi tabiiy boyliklarning paydo bo'lishi va er yuzida (ostida) tarqalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. ancha kengaytirilishi. O'zbekistonda gaz sanoati tarkib topishi va rivojlanishi tarixi asosan 1953-yilda Qizilqum cho'lida Setalontepa hududida birinchi gaz koni ochilishi bilan boshlangan. Buxoro viloyatining gaz-neftli hududlarida katta hajmda ishlar olib borildi. 1956-yilning 17-oktabrda Gazli maydonidagi 600 metrlik quduqsan kuchli gaz favvorasi otilib chiqdi. Bu bilan O'zbekiston neft-gaz sanoatida yangi davr boshlandi. O'zbekistonda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930-y.lar oxirida boshlangan. Ko'mir Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida Angren qo'ng'ir ko'mir, Surxondaryo viloyatida Sharg'un, Boysuntog' toshko'mir konlaridan qazib olinadi. 21-asr boshida O'zbekiston birlamchi yonilg'i—energetika manbalari bilan o'zini-o'zi ta'minlaydigan davlatlar sirasiga kiradi. 2000-yilda 7533,6 ming t neft (gaz kondensati bilan birga), 56401,1 mln.m³ tabiiy gaz, 2500 ming t ko'mir qazib olindi. Neftni qayta ishlash zdlarida 1,7 mln. t benzin, 1,9 mln. t dizel yoqilg'isi, 0,4 mln. t kerosin, 1,7

mln. mazut ishlab chiqarildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda neftgaz sanoatining kelgusi taraqqiyoti uchun o'ta muhim bo'lgan noyob inshootlar bunyod etildi. Ko'qdumaloq neftgaz kondensat koni jadal sur'atlar bilan o'zlashtirildi. Bu yerda 1997-y. 14-iyulda 500 atmosfera bosimda gazni haydash kompressor st-yasi ishga tushiriddi. Ko'kdumaloq konining neft va gaz kondensatini qayta ishlash uchun Buxoro viloyatida yiliga 2,5 mln. t mahsulot ishlab chiqaradigan zamonaviy Buxoro neftni qayta ishlash zavodi kurildi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi to'liq ta'mirlandi (2000).

Elektr-energetika suv, issiqlik va atom stantsiyalaridan tashkil topadi. Suv elektrostantsiyalarini (SES) tekislik joyga ko'ra tog' va tog'oldi rayonlarda qurish maqsadga muvofiq. Chunki, bunday sharoitda rel'ef shakli –er tuzilishining qiyaligi, tabiiy holda sharshara va tog'lar orasidagi cho'kmalarning mavjudligi, qulay imkoniyatlar tug'diradi. Shuningdek, suv ombori qoplagan erlar qishloq xo'jaligida deyarli ishlatilmaydi; qishloq manzilgohlari ham yo'q va, binobarin, ularni ko'chirtirish talab etilmaydi. Suv ombori va uning atrofida sport, dam olish zonalarini tashkil qilish, bog'dorchilik va baliqchilikni rivojlantirish, pastki hududlarda erlarni sug'orish, kanallar qurish mumkin. Ba'zan SESlar bilan birgalikda o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati ham rivojlanib boradi (masalan, Rossiyaning sharqiy rayonlarida). Ko'rinib turibdiki, tog'li rayonlarda qurilgan SESlar har tomonlama qulay, elektr energiyasi arzon.


Qora metallurgiya korxonalarini, ayniqsa cho'yan eritish zavodlarini (domna pechida eritiladi) joylashtirishda eng avvalo yoqilg'i va xom ashyo katta ahamiyatga ega. Bir tonna cho'yanni olish uchun taxminan ikki tonna temir rudasi, 1.2 tonna yoqilg'i-kokslanuvchi ko'mir lozim. Rudada temirning (Fe) miqdoriga, boy yoki boy emasligiga qarab zavod uch ko'rinishda joylashtiriladi: yoqilg'i yaqinida (temir ruda koni «boy»), xom ashyo yaqinida (rudada Fe miqdori yuqori emas) va ikkalasining o'rtasida (yoqilg'i va xom ashyo uchun transport xarajati deyarli bir xil). Uchinchi variantda suv hamda iste'mol omillari ham e'tiborlidir. Qora metallurgiyaga kiruvchi ferrosplav (temir qotishmalari) zavodlari «elektrotalab» hisoblanadi: 1 t ferrosplav uchun 8-9 ming kVt/s. elektr energiya sarflanadi. Binobarin, bunday zavodlar arzon elektr manbalariga yaqinroq joylashtiriladi. O'zbekistonda bir necha kichikroq temir konlari bor. Sanoat ahamiya-tiga molik temir konlari — magmatogen genezisli, magnetit-gematit tarkibli Surenota (Toshkent viloyati) hamda asosan titan-magnetitli Tebinbulok temir koni (Qoraqalpog'iston) shular jumlasidan.

Mashinasozlikning tarkibi boyligi tufayli unga ta'sir qiluvchi omillar turi ham har xil. Chunki, metallni ko'p talab qiluvchi og'ir mashinasozlik (vagonsozlik, tog'-kon va shaxtalar uchun asbob-uskunalar va h.k.) qora metallurgiya rayonlarida kam, ammo malakali ishchi kuchi kerak bo'lgan priborsozlik, elektrotexnika, hisoblash texnikalari kabi nozik va aniq mashinasozlik fan-texnika taraqqiyoti markazlarida

joylashtiriladi. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi ko'p hollarda iste'mol rayonlarida rivojlanadi. Masalan, O'zbekistonda paxta teruvchi, Ukrainada g'alla va qand lavlagi, Belorussiyada-kartoshka va zig'ir, Moldaviyada uzumchilik, Qirg'izistonda pichan o'ruvchi va preslovchi mashinalar ishlab chiqariladi. Demak, mamlakat yoki rayon nimaga ixtisoslashsa, o'sha sohaga xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'i tashkil etiladi. Bu qonuniyat boshqa tarmoqlarga ham tegishli. CHunonchi, Kareliyada o'rmon, Uralda-qora metallurgiya, Donbassda shaxta, O'zbekistonda-to'qimachilik, Irkutskda-oltin saralash mashinasozligi rivojlangan va h.k.

Kimyo va neftni qayta ishlash sanoati. Asosiy kimyo uchun xom ashyo omili uncha muhim emas. CHunki, bu sanoat turli xil xom ashyo: o'simlik, mineral, ishlab chiqarish chiqindilari hatto suv va havo asosida ham tashkil etilaveradi. Binobarin, kimyo sanoatini hududiy tashkil etish katta erkinlikka ega. Ammo, unga ta'sir etuvchi boshqa kuchli omil mavjud- bu ham bo'lsa ekologiyadir. Neftni qayta ishlash zavodlari xom ashyo rayonlariga ko'ra iste'mol rayonlarida ko'proq uchraydi. Xom neftni keltirib turli xil mahsulot olish, ularning barchasini alohida-alohida keltirishdan ko'ra arzonroq, qulay va xavfsizroqdir. Ba'zan bunday zavodlar magistral neft quvurlari o'tgan joylarda ham tashkil etiladi. Kimyo sanoati uchun suv va elektr energiyasi omili ham ahamiyatliroq. SHu sababdan bo'lsa kerak, CHirchiq yirik kimyo sanoati markaziga aylangan.

Qurilish sanoati boshqa tarmoqlarga nisbatan «oldinda» borishi kerak, zero usiz yangi erlar o'zlashtirilmaydi, korxona va tashkilotlar bunyod etilmaydi. /isht, tsement, cherepitsa, shiftni ishlab chiqarish ko'p jihatdan xom ashyoga bog'liq. SHu sababdan bo'lsa kerak, Rossiyaning asosiy tsement sanoati markazlari Vol'sk, Iskitim, Novorossiysk hisoblanadi. Sababi, ular ilmiy ishlab chiqarish uchun xom ashe-mergeli, ohaktosh ko'p miqdorda mavjud. O'zbekistonda ham tsement ishlab chiqarish xom ashyo omilini e'tiborga olgan tarzda amalga oshirilgan (Bekobod, Angren, Quvasoy, Ohangaron). Bundan tashqari, tsement ishlab chiqarish qora va rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil qilinadi. Buning uchun domna pechlarining chiqindisi-shlak, alyuminiy sanoatiga tegishli glinozyom zavodlari chiqindilari ishlatiladi. [1]



Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlari 2023-yilning yanvar-iyun oylari oralig'ida iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha sanoatning rivojlanish sur'atini tahlil qildi.

2023-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ijobiy natijalarga erishildi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmi 5,6 foizga oshdi va 293,6 trln. so'mga yetdi. Jumladan, ishlab chiqarish sanoatidagi o'sish 6,3 foizni, elektr energiyasi, tabiiy gaz va bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash kabi tarmoqlardagi o'sish 9,9 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda O'zbekistonning barcha viloyatlarida ijobiy natija kuzatilmoqda. Bunda hududlarning sanoat tarmog'i tarkibida kattagina ulushni tashkil etgan ishlab chiqarish sanoati o'sishning asosiy drayveri bo'ldi. Neftni qayta ishlash, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, avtomobilsozlik sanoati va metallga ishlov berish tarmoqlarida alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarishda faol o'sish kuzatildi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari oralig'ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida sanoat tarmog'ining ulushi ortdi.

Xulosa: Sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari iqtisodiyotning asosiy poydevori bo'lib, mamlakatlar rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ushbu tarmoqlar ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish, ish o'rinlarini yaratish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi va innovatsion rivojlanishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining samarali ishlashi resurslarni tejash va ekologik

muvozanatni saqlashga ham yordam beradi. Shu bois, sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi va modernizatsiyasi har bir davlat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quvondiqov O.X. Sanoat geografiyasi fanidan o'quv-uslubiy majmua (bakalavriat talabalari uchun) – S.: SamDU, 2011.
2. Egamberdiyeva U.T. A 40 Sanoat geografiyasi [Mato]: darslik / Egamberdiyeva U.T., -Toshkent: «Donishmand ziyosi», 2020. - 232 b.

